XALQ DEPUTATLARI BOYSUN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 13-sentabr VII-13-90-8-110-K/25 Boysun tumani

Boysun tumanidagi ayrim ko‘chalarning nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2025-yil 8-apreldagi 11-01/25-sonli, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2025-yil 11-apreldagi 18-07/88-sonli hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 24-apreldagi 05-19-01-6425-sonli “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi davlat ekspertizasi xulosasi to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayonlarini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2025-yil 8-apreldagi 11-01/25-sonli, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2025-yil 11-apreldagi 18-07/88-sonli hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 24-apreldagi 05-19-01-6425-sonli “Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi davlat ekspertizasi xulosasi to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayonlari ma’qullansin.

2. Boysun tumanida nomlari tasdiqlanayotgan ko‘chalarning ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Kadastrlar palatasi tuman filiali (M.X.Jo‘rayev), tuman statistika bo‘limi (A.R.Saidov) tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari tasdiqlanayotgan ko‘chalarni, shuningdek, yangidan nomlangan ko‘chalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (F.T.Murtazoyev) nomlari tasdiqlanayotgan ko‘chalarda yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

5. Tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (F.F.Fayzulloyev), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi (Z.A.Raxmonov) hududlarda yangi nomlangan aholi punktlarining tarkibiy qismlarining yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (Y.Sh.Xoliyorov) mazkur qarorning “Boysun” gazetasida rasman e’lon qilinishi hamda hokimlik veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Q.Bobomurodov) hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (S.B.Bahovaddinov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



SHUKUROV BOXADIR SHOTURAYEVICH

Xalq deputatlari Boysun tumani Kengashining
2025-yil 13-sentabrdagi
VII-13-90-8-110-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Boysun tumanida nomlari tasdiqlanayotgan ko‘chalarning ro‘yxati

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning joylashuvi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining umumiy xulosasi
1.	Tor ko‘cha	Chorchinor MFY	Nomsiz	Bog‘ot	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Berk ko‘cha	Sariosiyo MFY	Nomsiz	Bog‘ot-2	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	Tor ko‘cha	Mustaqillik MFY	Nomsiz	Ehtirom	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	Berk ko‘cha	Dashtig‘oz MFY	Nomsiz	Nurlidiyor-1	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5.	Berk ko‘cha	Bibishirin MFY	Nomsiz	Shirinbuloq-4	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.